

Sport bizni birlashtiradi

Hammamizga ma'lumki, bugungi kunda hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, Respublikamizda mavjud barcha oliy ta'lim muassasalarida sport bilan shug'ullanishga barcha shart-sharoitlar mavjud. Ushbu sharoitlardan unumli foydalanish talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti dekani Sh.Narbaev va yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova, fakultet yoshlar ittifoqi yetakchisi H.Tojiboyev hamda futbol bo'yicha fakultetda komanda sardori Yusufjon Abdullaevlar tashabbuslari bilan 1 kurs talaba-yoshlar o'rtasida "Sport sog'liq garovi" shiori ostida "Dekan kubogi" sport haftaliga start berildi.





Bugun ushbu sport haftalikni birinch kuni. Bugungi musobaqamizda o'g'il bolalarimiz sportni futbol turi bo'yicha o'zaro brllashdilar. Ushbu musobaqada fakultetimizni iqtidorli, sportga ishtiyoqi baland 1 kurs talabalari guruhlar miqyosida faol ishtirok etishdi. G'olib komandalar hafta oxirida taqdirlanadi. Barcha ishtorokchilarga omad tilaymiz.

YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti